

## BUDJET TASHKILOTLARIDA PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

**Elchiboyev Sirojiddin Fahriddinovich**

(Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi misolida)

Budjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalgalashirishi uchun Davlat budgetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Budjet tashkilotlari daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi bo'yicha budjet va budjetdan tashqari mablag'lar buxgalteriya hisobini O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining uslubiy ko'rsatmalariga hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq tashkil qiladilar. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, zarur hollarda, o'zlarining tizimidagi budjet tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda buxgalteriya hisobining umumiy qoidalarini qo'llash tartibi to'g'risida ko'rsatmalar ishlab chiqarishlari mumkin.



## 1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasi davlat budgeti daromadlarining 2024-yil 1-yarim yilligi ijrosi

Manba: Muallif tomonidan Internet ma'lumotlari orqali tayyorlandi

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishdan maqsad foydalanuvchilar (ichki, tashqi) ni daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayoni bo'yicha o'z vaqtida, to'liq hamda aniq buxgalteriya va moliyaviy axborotlari bilan ta'minlab berishdan iborat.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Buxgalteriya hisobini amaldagi tegishli me'yoriy-xuquqiy xujjatlar asosida tashkil etish;
  - Budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag'lardan maqsadli foydalanishni ta'minlash;

- Daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayoni muomalalarini hujjatlashtirish va hisob registrlarida aks ettirish;
- Budget tashkilotlari buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarning holati to‘g‘risidagi to‘liq hamda aniq ma’lumotlarni shakllantirish;
- Budget tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi natijalarini shakllantirish;
- Budget ijrosiga oid buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish va hisobotlarni tuzishdan iboratdir;
- Buxgalteriya hisobini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va boshqalar.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini alohida hususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi nazorat qilinishi;
2. Kassa va xaqiqiy xarajatlar hisobini yuritilishi;
3. Budget tasnifi asosida hisobni tashkil etilishi va hisobotlarni shakllantirilishi;
4. Buxgalteriya hisobi va hisobotlarni me’yoriy hujjatlarga qat’iy amal qilingan xolda yuritilishi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

10. O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksi (2020). O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. Available at: <https://lex.uz/docs/2054763> (Accessed: 20 September 2024).
11. Alimardonov, A. (2024). Moliyaviy hisobni takomillashtirish: byudjetdan tashqari mablag‘lar nazorati. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot Jurnali, 3(2), pp. 45-58.
12. Anderson, J. (2023). Public Sector Financial Management: International Practices and Challenges. Oxford University Press.
13. Auerbach, A.J. and Smetters, K. (2023). The Economics of Public Spending. Cambridge University Press.
14. Bardhan, P. (2023). The Role of Government in the Economy. The Journal of Economic Perspectives, 37(1), pp. 5-28.